



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRINING
BUYRUG'I**

2021-yil 11-noyabr 343 -son

Toshkent sh.

**Oliy ta'lim muassasalari psixologlari
faoliyatini yanada takomillashtirish
ularning malaka oshirish kurslarini
tashkil etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli qarorining 11.5-band hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markazida oliy ta'lim muassasalari psixologlari uchun malaka oshirish kursi tashkil etilsin.

2. Malaka oshirish kursining o'quv dasturi 1-ilova, kurslarning o'quv grafigi 2-ilovaga muvofiq, psixologlar to'g'risidagi Nizom 3-ilovaga muvofiq, hisobot shakli 4-ilovaga muvofiq va baholash mezonlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda filiallar direktorlari bir oy muddatda:

ta'lim muassasasidagi vakant psixolog o'rinlarini to'ldirish choralarini ko'rish;

psixologlar faoliyatini baholash mezonlari asosida baholab, ularga ustama haq to'lash tartibini joriy etish;

oliy ta'lim muassasalari (filiallari) jamoa shartnomalarida psixologning mehnat ta'tilini uzaytirish bo'yicha qo'shimchalar kiritish masalasini o'rganib chiqish va lozim deb topilgan taqdirda mazkur o'zgartirishlarni kiritish;

psixologlar uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan alohida xona ajratilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish boshqarmasi (F.Esanboboyev), O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markazi direktori (O'.Tilavov)lar;

malaka oshirish kurslariga oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchilarini jalb etish;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etgan holda tashkil etish;

kurslarni sifatli o'tkazish uchun zarur tarqatma materiallarni hamda sifatli o'quv-uslubiy ta'minotni shakllantirish;

kurslarni muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilarga sertifikatlar berish vazifalari yuklatilsin.

5. O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markaz direktori (O'.Tilavov)ga:

oliy ta'lim muassasalari psixologlarning malaka oshirish kurslari joriy yilning dekabr oyidan boshlanishini ma'lum uchun qabul qilsin;

malaka oshirish kursida o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchilarga Markazning maxsus hisob raqamiga oliy ta'lim muassasalari bilan tuziladigan shartnomalarga asosan kelib tushadigan mablag'lar hisobidan haq to'lash choralari ko'rsin.

6. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari hamda filiallar direktorlari:

ilova bilan tasdiqlangan tinglovchilarning ishtirok etishlarini nazoratga olish;

tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq malaka oshirish kursi uchun to'lovlarni shartnoma asosida O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) Markazining hisob raqamiga o'z vaqtida o'tkazishni amalga oshirish;

uch yoshga to'lmagan yosh bolasi bo'lgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan hamda boshqa uzrli sabablar bilan malaka oshirish kurslarida ishtirok eta olmagan psixologlar oliy ta'lim muassasasi rektorining (direktori) tavsiyasi asosida, onlayn tarzda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslariga jalb etish choralari ko'rish vazifalari yuklatilsin.

7. Malaka oshirish kurslariga jalb etilgan mutaxassislarning xizmat safari hamda yotoqxon bilan bog'liq xarajatlari asosiy ish joyidan qoplansin.

8. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 23-avgustdagi 600 sonli buyrug'ining 5-ilovasi (Oliy ta'lim muassasalari psixologining namunaviy lavozim yo'riqnomasi) o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

9. Ushbu buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari S.Buzrukhonov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



A.Toshkulov



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022 yil
noyabrdagi 373-sonli buyrug'iga 1-ilova

MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV REJASI

Malaka oshirish yo'nalishi: **Psixologiya**
Tinglovchilar kontingenti: **Oliy ta'lim muassasasi psixologlari**
Malaka oshirish kursi muddati: **4 hafta (144 soat)**
Malaka oshirish turi: **Ishlab chiqarishdan ajralgan holda**

№	O'quv modullari	Umumiy soat	Jami auditoriya soati	Jumladan		Mustaqil ta'lim	Haftalar bo'yicha soatlar			
				Nazariy	Amaliy		I	II	III	IV
							Kunlar bo'yicha soatlar taqsimoti			
							6	6	6	6
I	Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-meyoriy asoslari	8	8	8	0	0	8	0	0	0
1.1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalarida jamiyat rivoji hamda ta'lim-tarbiya	4	4	4	0	0	4			
1.2.	Oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkiliy-uslubiy jihatlari	4	4	4	0	0	4			
II	Мутахассислик бўйича тайёргарлик	124	112	40	64	20	28	36	36	36
2.1.	Destruktiv hulq-atvor psixologiyasi	24	22	8	12	4	4	6	6	8
2.2.	Psixodiagnostika	20	18	6	12	2	6	8	6	4
2.3.	Psixologik konsultatsiya va korreksiya	24	22	8	12	4	4	6	4	6
2.4.	Oila psixologiyasi	12	10	4	6	2	4	4	4	6
2.5.	Boshqaruv psixologiyasi	20	18	6	10	4	6	6	4	6
2.6.	Psixologik treninglar asoslari	24	22	8	12	4	4	6	12	6
III	Malakaviy attestatsiya	132	120	48	64	20				
3.1.	Bitiruv ishi himoyasi	12			12					
Jami:		144	120	48	76	20	36	36	36	36

Izoh:

- O'quv rejasiga qo'shimcha kiritiladigan modullar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.
- O'quv rejasidagi modullarga ajratilgan soatlar miqdori auditoriya va mustaqil ta'lim soatlarini qamrab oladi.
- Tinglovchilar Psixologiya bo'yicha qayta tayyorlov kurslarida (har bir guruhda kamida 20 nafargacha tinglovchilar bo'lishi sharti bilan).
- Mashg'ulotlar muammoli ma'ruza, seminar-trening, davra suhbat, munozara, kichik guruhlarda ishlash hamda boshqa interfaol metodlardan foydalangan holda olib boriladi.
- Tanlov fanlari tinglovchilarning ehtiyojidan kelib chiqib tavsiya etiladi.
- Mashg'ulotlar oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etiladi.
- Mustaqil ta'lim tegishli modul dasturida keltirilgan mavzular bo'yicha tayyorlangan topshiriqlar asosida amalga oshiriladi.
- Malaka oshirish kursi tinglovchilari o'quv rejaning mutaxassislik fanlari moduli bo'yicha malaka ishini tayyorlaydilar.
- Malakaviy attestatsiya onlayn-chiqish test sinovi topshiriqlari hamda malakaviy ishini himoya qilish asosida amalga oshiriladi.
- Malaka ishini tayyorlash, uning himoyasini va test sinovlarini o'tkazish auditoriya soatlaridan tashqari vaqtlarda amalga oshiriladi.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022 yil
noyabrdagi 372-sonli buyrug'iga 2-ilova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazining Oliy ta'lim muassasalari "Psixolog"larini qayta tayyorlash kursining 2022-2023 o'quv yili uchun reja-grafigi

N ^o	Qayta tayyorlov kursi	Dekabr 2022 yil	Fevral 2023 yil	April 2023 yil	Iyun 2023 yil	Avgust 2023 yil	Oktabr 2023 yil	Dekabr 2023 yil
1.	Psixologiya	20						
2.	Psixologiya		20					
3.	Psixologiya			20				
4.	Psixologiya				20			
5.	Psixologiya					20		
6.	Psixologiya						20	
7.	Psixologiya							20



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022 yil
noyabrdagi 372-sonli buyrug'iga 3-ilova

OLIY TA'LIM MUASSASALARI PSIXOLOGI LAVOZIMI FAOLIYATI BO'YICHA NAMUNAVIY NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

Oliy ta'lim muassasalari psixologining asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlari Mazkur Namunaviy nizomga (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) muvofiq tasdiqlangan ish reja asosida tashkil etish tartibini belgilaydi va shu bo'yicha ish olib boradi.

Psixologlar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlariga, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Oliy ta'lim tizimi psixologi faoliyati ta'lim xizmatlari sohasiga mansub bo'lib, kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda talabaning har tomonlama garmonik yetuk, to'laqonli psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, oliy ta'lim psixologining burchi ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzishda, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o'quv dasturi, qo'llanmalarini yaratishda faol ishtirok etish va bosh maqsad bo'lgan talabaning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim, ko'nikma va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iboratdir.

Oliy ta'lim psixologi o'zining talaba xulq-atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari, kasbiy bilimlari, talabalar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlari, o'quv-tarbiya jarayonini tashkillashuviga tayanib, shaxsga individual yondashuv imkoniyatlarini beradi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, me'yordan chetlashishlarning ehtimolli sabablarini, psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan oliy ta'lim tizimi psixologi ta'lim tizimi, xususan oliy ta'lim tizimida, o'quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirish imkoniyatini yaratadi.

Oliy ta'lim psixologi faoliyati zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib boriladi.

Oliy ta'lim muassasasi psixologi Ma'naviy-marifiy va ilmiy kengashi a'zoliciga kiritilishi zarur.

Oliy ta'lim psixologi faoliyatining tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari, ota-onalari bo'lib, hisoblanadi. Ularni alohida yoki guruhiy shaklda tadqiq qilish mumkin.

Oliy ta'lim psixologlari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxsning (pedagog, talaba, ota-ona) manfaati va uning har tomonlama uyg'un va mukammal rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi.

Oliy ta'lim psixologlari o'z faoliyatlarini ta'lim muassasasi rahbariyati, fakultetlar, tibbiyot xodimlari, muayyan komissiyalar, ota-onalar hamda oliy ta'lim muassasasi jamoasi bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar.

Oliy ta'lim psixologi lavozimi bo'yicha umumiy rahbarlikni oliy ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektori olib boradi.

II. OLIY TA'LIM PSIXOLOGI FAOLIYATINING MAQSADLARI

2.1. Oliy ta'lim psixologi talabalarning yosh xususiyatlarini hamda jadal rivojlanishini hisobga oluvchi, ular psixikasining barcha jabhalarini qamrab oluvchi dinamik taraqqiyotga kafolat beruvchi dastur ishlab chiqarishga butun faoliyatini yo'naltiradi, ijtimoiy o'sish talabiga javob beruvchi, umuminsoniy, etnopsixologik qonuniyatlar kamolotiga yetaklovchi modelni tarkib toptirishni amaliy ishlarni olib boradi.

2.2. Talaba shaxsining har tomonlama (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, intellektual, psixologik) uyg'un taraqqiyoti uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

2.3. Talabaga o'qishga adaptatsiya qilish jarayonida o'zini anglash va kasbiy shakllanish va shaxsiy psixologik muammolarida kompleks yordam ko'rsatadi.

2.4. Oliy ta'lim muassasasida pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlovchi psixologik muammolarni yechishda yordam beradi.

III. OLIY TA'LIM PSIXOLOGI FAOLIYATI YO'NALISHLARI VA VAZIFALARI

3.1. Oliy ta'lim psixologi faoliyati yo'nalishlari:

- psixodiagnostika
- psixoprofilaktika
- psixokorreksiya
- psixologik konsultatsiya
- psixologik targ'ibot va ma'rifat

1. Psixodiagnostika — psixodiagnostik tadqiqotlar talabalarning o'qishi davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual-psixologik xususiyatlarini, ta'lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo'ljallangandir. Diagnostik ishlar guruhiy yoki individual tarzda o'tkaziladi.

Mazkur ishlar oliy o'quv yurtlarida o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim va tarbiyadagi nuqsonlari sababini aniqlashga mo'ljallangandir. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi:

- yosh davr taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog oliy ta'lim muassasalari talabalarini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi,

ularning darajalarini belgilaydi. Talabalarning kasbiy yaroqliligini diagnostika qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatleri, his-tuyg'ulari, o'zini o'zi boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi;

- psixolog professor-o'qituvchilar va talabalarning psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga muayyan yordam ko'rsatadi.

- oliy o'quv yurti talabalarida uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvoridagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sabablarini diagnostika qiladi.

- talabalarning o'z tengdoshlari bilan muloqotini o'rganish uchun ularni tekshiradi. Ularning etnomadaniyati xususiyatini hisobga olgan holda psixofiziologik metodlarni muayyan sharoitga moslashtiradi.

- boshqa soha mutaxassislari, fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, fan o'qituvchilari va guruh tyutorlarining murojaati asosida talabaning psixik rivojlanishidagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial diagnostikani amalga oshiradi. Xususan:

a) nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi;

b) assotsial xulq-atvor sabablari va shakllarini belgilaydi;

v) talabalar o'rtasidagi giyohvandlik, taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, oiladagi zo'ravonlik kabi illatlarning ijtimoiy-psixologik ildizlarini tekshiradi, uning omillarini tahlil qiladi;

2. Psixoprofilaktika – oliy ta'lim psixologi faoliyatining maxsus turi bo'lib, talaba va professor-o'qituvchilar uchun sog'lom psixologik muhit yaratish va ular shaxsining rivojlanishi uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Psixoprofilaktika ishning asosiy vazifalari quyidagilar:

- shaxs sifatida shakllanish, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish;

- shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqsonlar va buzilishlarni o'z vaqtida oldini olish;

- talabani muayyan sharoitga moslashishi (ko'ngil) ga oid ishlarini olib borish, buning uchun ijtimoiy moslashish bilan bog'liq bo'lgan maxsus guruhlar tuzish, nevrotik holatlarni bartaraf qilish, tarbiyasi qiyin talabalar bilan ishlash va ularning ota-onalari, tyutorlar bilan alohida ishlash va x.k);

- talab va ehtiyojga ko'ra talabalarni birinchi bosqichga qabul qilish jarayonida qatnashish, ularning oliy ta'lim-tizimiga psixologik tayyorgarlik darajasini aniqlash, professor-o'qituvchilar bilan hamkorlikda talabalar bilan individual ishlash dasturini ishlab chiqish;

- ta'lim va tarbiya, yashash sharoiti bilan bog'liq nevrotik holatlar, psixologik zo'riqishning oldini olish, maqsadida talabalar bilan ishlash;

- talaba shaxsining qobiliyati, mayli psixologik fazilatleri, xususiyatlarini to'laqonli namoyon bo'lishi maqsadida, aqliy (intellektual) taraqqiyot darajasini aniqlash uchun psixologik konsiliumlar tashkil qilish;

- oliy ta'lim jamoa – a'zolaridagi psixologik zo'riqish va kasbga doir charchoqni yengillashtirish, ularning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish

va targ'ib etish;

- oliy ta'lim istiqboli bilan bog'liq bo'lgan, ilmiy jihatdan asoslangan modelni professor-o'qituvchilar hamkorligida yaratish. Oliy ta'lim-tizimida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini psixologik-pedagogik diagnostika qilishda qatnashish unga o'zgartirishlar kiritish, oqibat natijada talabalarni shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qilish;

- o'quv motivlari, shaxsining yo'nalishi, uning etnomadaniyat bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarga yo'naltirish xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga tuzatishlar kiritish;

- shaxslararo, etnik guruhlar, millatlararo har xil ko'rinishdagi ziddiyatlarning oldini olish uchun psixologik tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi;

- professor-o'qituvchilar xodimlar, ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning, oilaviy nizolarning psixologik ildizini o'rganish, ularni keltirib chiqaruvchi motivlarni tahlil qilish, favquloddagi vaziyatlarni yengillashtirish va tamoman bartaraf qilish yo'llari yuzasidan maslahatlar berish;

- yoshlar o'rtasidagi aysh-ishratga, giyohvandlikka, yengil turmush kechirishga, zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, totalizator o'yinlarga mukkasidan ketgan, talabalar bilan individual ishlashni yo'lga qo'yish;

- o'zlashtirishi sust bo'lgan talabalar ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash va ularga yordam berish yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish, hamda korreksiya muhtoj talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

— o'z-o'zini boshqarish imkoniyatini oliy ta'lim talabalari o'rtasida aniqlash (bioritmika, emotsiya, motivatsiya, iroda, qiziqish, diqqat kabilarni shaxs tomonidan idora qilishni nazarda tutiladi).

- talabalarda, ayniqsa, talabalar turar joyi va ijarada yashovchi talabalarda ijtimoiy moslashuv ko'nikmasini shakllantirish va ularning ijtimoiy muammolarini bartaraf etishda psixologik-pedagogik ta'sir amaliyotlarini olib borish;

- huquqbuzarlik va jinoyatga moyilligi bo'lgan, xulqi og'ishgan talabalarni aniqlash, ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish orqali ijtimoiy faol faoliyatga yo'naltirish;

- talabalar bilan so'rovnomalar o'tkazishda har bir fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, psixologiya fakulteti o'qituvchilari va tyutorlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish;

- muammoli talabalar bilan ishlashda ma'naviy – ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari va tyutorlar bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirish;

3. Psixokorreksiya ishlar – amaliyotchi psixolog talaba, professor-o'qituvchilar shaxsi va intellektini rivojlantirish jarayoniga faol ta'sir o'tkazishni taqozo qiladi.

Ushbu yo'nalishda psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshiradi:

- rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar psixolog tomonidan har xil

shakllarda, vaziyatlarda va holatlarda tashkil qilinadi:

a) amaliy psixologning asosiy ishi, psixodiagnostika jarayonida aniqlangan muammolar yuzasida talabalar bilan individual tarzda bo'lgan mashg'ulotlar jadvali tuziladi.

b) talabalarning har-bir faoliyati maxsus ravishda amalga oshirilib, talabalar guruhlariga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

v) ota-onalar pedagogik jamoalarga oliy ta'lim tizimi xodimlari ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

- rivojlantiruvchi va psixokorreksion muammolarni qamrab oluvchi korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, fan o'qituvchilari va guruh tyutorlarining murojaati asosida mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi.

- oliy ta'lim psixologi talabalarning psixik taraqqiyotidagi, xulqidagi nuqsonlar, hamda kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi. Guruh tyutorlarining murojaati asosida buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar, ijodiy (kreativ) qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi.

- talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi nomutunosiblikni yo'qotish maqsadida maxsus mashg'ulotlar o'tkazish: ulardagi o'qishdan, ijtimoiy muhitdan egallangan o'rnidan, mavqeyidan qoniqmaslik hissini kamaytirish uchun trening, roli o'yinlar, psixodrammadan foydalanish.

- emotsional zo'riqishning oldini olish va uni kamaytirish maqsadida psixolog xonasini jihozlash. (xona jahon standartlariga javob berish, boshqaruv pulti, ekran vositalari, autotrening, sotsial trening, texnik vositalarga, ilmiy uslubiy metodikalarga ega bo'lish lozim).

- fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, fan o'qituvchilari va guruh tyutorlarining murojaati asosida zo'ravonlik va tazyiqqa uchragan shaxslar bilan psixokorreksion ishlarni amalga oshiradi. Ular bilan treninglar, roli o'yinlar, maxsus mashg'ulotlar olib boradi.

- Korreksion ishlar ma'lum tartibda, ilmiy tanlov asosida, muayyan seans bo'yicha o'tkazilishi shart. Bunda emotsional zo'riqishga uchragan shaxsning millati, yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyati, ta'sirlanish darajasi hisobga olinishi kerak: tuzatish ishlari mashg'ulot, faoliyat kasb xususiyatiga mos, mutanosib bo'lishi ta'sir o'tkazish samaradorligini oshiradi: unda yapon uslublarini qo'llash ham zarur ma'lumotlar to'plash va tanglikni yo'qotish imkoniyatini yaratadi.

- korreksion faoliyatning psixologik qismi psixologlar tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

- oliy ta'lim psixologining maxsus individual ishi;

- talabalar guruhiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar;

- ota-onalar, pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish.

4. Psixologik konsultatsiya (maslahat), - talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma'muriyat, professor-o'qituvchilar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu yo'nalishda psixolog quyidagi aniq ishlarni amalga oshiradi:

— ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasbiy shakllanish va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar munosabati va dunyoqarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish;

- ma'muriyatga talabalarni va guruhlarni qiziqtiruvchi masalalar bo'yicha maslahat berish: ularni faollashtirish, ularga ta'sir o'tkazish to'g'risida rahbar kadrlarga amaliy ko'rsatmalar tayyorlash;

- ota-onalarga talabalarning psixik rivojlanish xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yosh, jins, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar berish;

- oliy ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari va bosqichlarida ma'ruza o'qish, ota-onalar yig'ilishida, oliy ta'lim muassasasi Kengashida ishtirok etish orqali pedagoglar, ota-onalar psixologik madaniyatini oshirishga harakat qilish, ularga individual, guruhiy maslahatlar berish;

- oliy o'quv yurtlariga talabalar tanlash mohiyati, vazifasi, monandligi, ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik konsultativ ishlar olib borish;

- rahbar kadrlar va professor-o'qituvchilarning kasbga yaroqliligini ilmiy asosda tekshirish va aniq tavsiyanomalar ishlab chiqadi;

- attestatsiya, ijtimoiy talab va buyurtmalar yuzasidan ijtimoiy-psixologik axborotlar to'plash va ularni umumlashtirib, alohida tavsiyalar ishlab chiqish;

- xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan aloqa qilish, kadrlar malakasini oshirish, ularning intellektual potensialini (imkoniyatlarini) aniqlash fan va texnikani rivojlantirish imkoniyatini, oliy maktabning nufuzi to'g'risida materiallar yig'ish, ularni psixologik tahlil qilish va maslahatlar berish;

- yotoqxonalarda talabalarning talabi, ehtiyoji, qiziqishi, ijtimoiy qarashlari, pozitsiyasi, mosligi va turmushga munosabati to'g'risida ma'lumotlar to'plash va ularni amalga oshirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

- an'anaviy ta'lim-tarbiya metodlarining yutuq hamda kamchiliklarini tadqiqot qilish, innovatsion, faol uslublar samaradorligini sinab ko'rish, talabalarning ularga nisbatan munosabatini aniqlash va ularga asosan o'qitishni individuallashtirish, differensiyalash bo'yicha o'quv bo'limiga ko'rsatmalar tavsiya berish;

- iqtidorli talabalarni tanlashda ishtirok etish, ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va shunga asosan ularga stipendiyalar belgilashda ishtirok etish;

5. Psixologik targ'ibot va ma'rifat — talaba va pedagoglar jamoalarida eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus psixologik tadbirlar olib borish, pedagogik jamoada muomala madaniyatini takomillashtirish, talabalar bilan

professor-o'qituvchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish, shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan pedagogik jamoalarda keng ko'lamda maslahatlar berish. Pedagogik jamoa a'zolaridagi psixologik zo'riqish va toliqishni yo'qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora-tadbirlarni tarkib toptirishga ko'maklashish.

3.2. Oliy ta'lim psixologi faoliyatini amalga oshirish metodlari turlicha bo'lishi mumkin:

- psixologik madaniyatni o'stirish va targ'ib qilish maqsadida oliy ta'lim muassasa professor-o'qituvchilari, talabalar bilan ma'ruzalar turkumi va trening mashg'ulotlari o'tkazish, ularni tarqatish;

- ilmiy-ommabop adabiyotlarni yaratish;

- ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;

- psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar va treninglar ishlab chiqish, (test, savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar);

- psixologik maslahat berish;

- psixologik konsiliumlar o'tkazish.

Bu yo'nalishdagi ishlar rejasi ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlanadi va nazorat qilinadi.

IV. OLIY TA'LIM PSIXOLOGI FAOLIYATINING MAZMUNI

4.1. Oliy ta'lim muassasasidagi talabalar guruhlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganib chiqish, ta'lim muassasasidagi axloqiy-psixologik iqlimni, uning talaba shaxsiga ta'sirini o'rganish, talabalarning shaxsiy muammolarini aniqlash maqsadida ijtimoiy-psixologik diagnostika o'tkazish;

4.2. Mushkul vaziyatlarga tushib qolgan talabalarga individual maslahatlar berish;

4.5. Ota-onalar, pedagoglar, ma'muriyat va guruh tyutorlariga psixologik maslahatlar berish;

4.6. Talabalardagi xulqi og'ishishlarni erta aniqlash va ularning oldini olish;

4.7. Turli holatlar bo'yicha hisobda turadigan talabalar bilan psixoprofilaktik va korreksion ishlarni olib borish (guruh tyutorlarining murojaati asosida);

4.8. Rahbariyat, professor-o'qituvchilar, xodimlar, psixologik yordamga muhtoj talabalar va ota-onalar o'rtasidagi nizolar bilan ishlash (fakultet dekanlari, dekan o'rinbosarlari, fan o'qituvchilari va guruh tyutorlarining murojaati asosida).

V. OLIY TA'LIM PSIXOLOGI FAOLIYATIGA OID HUJJATLAR

5.1. Oliy ta'lim vazirligining namunaviy ish rejasi asosida tuzilgan, rektor (direktor) tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejasi;

5.2. Talabalar bilan individual ishlarni hisobga olish jurnali;

5.3. Ta'lim muassasalaridagi talabalar guruhlarining ijtimoiy-psixologik pasportlari;

5.4. Noxush oilalar, xavf-xatar darajasi yuqori bo'lgan talabalarning ma'lumotlar bankini yaratish (elektron);

5.5. Ota-onalar, pedagog xodimlar bilan ish yuritishga doir o'tkazilgan

psixologik so'rovnomalar va trening mashg'ulotlari.

VI. OLIY TA'LIM PSIXOLOGINING MAJBURIYATLARI

6.1. Oliy ta'lim muassasasining psixologi lavozimi faoliyati bo'yicha Nizom, Yo'riqnoma va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy ish rejasiga muvofiq ish yuritishi va tasdiqlangan ish rejasining to'liq bajarilishini ta'minlashi;

6.2. Psixolog faoliyati yuzasidan har uch oyda Ilmiy kengashga hisobot berib borishi;

6.3. Psixodiagnostik metodikalarning tahlili yuzasidan psixokorreksion ishlar olib borishi;

6.4. Oliy ta'lim muassasasidagi pedagogik xodimlar, talabalar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va ular bilan psixologik targ'ibot ishlarini olib borish;

6.5. Talabalar bilan olib boriladigan ishlar va ularning natijalari, berilayotgan tavsiyalar asoslanganligi, tekshiruv va boshqa hujjatlarni to'ldirish va ularni saqlash;

6.6. Oliy ta'lim psixologi faoliyati bo'yicha metodik seminarlarda ishtirok etish;

6.7. Ma'muriyat, ota-onalar bilan uzviy aloqada ish yuritish;

6.8. Konsultativ jarayonda olingan shaxsiy axborot maxfiyligini ta'minlash;

6.9. Psixologik diagnostika natijalari va materiallari yuridik hujjat hisoblanmaydi va tavsiya xarakteriga ega.

6.10. Oliy ta'lim muassasasi talabalari va xodimlari hayotida yuz beruvchi kasbiy, ijtimoiy, oilaviy psixologik krizisli holatlari, jarohat, travma va boshqa patologik holatlar uchun psixolog shaxsan yakka xolda mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

VII. OLIY TA'LIM PSIXOLOGINING HUQUQLARI

7.1. Talabalar faoliyatini kuzatish maqsadida darslar va darsdan tashqaridagi ishlarda ishtirok etish.

7.2. Pedagogik hujjatlar bilan tanishish.

7.3. Oliy ta'lim muassasasida guruhiy va individual psixologik tadqiqot ishlarini olib borish.

7.4. O'z ish tajribasini umumlashtirish maqsadida ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarda ishtirok etish, psixologik-pedagogik bilimlarini targ'ib etish.

7.5. Zaruriyat tug'ilganda ruhiy, tibbiy va defektologik muassasalarga murojaat etish.

7.6. O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga yetkazish.

7.7. Ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish.

7.8. Kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'z kasbiy malakasini oshirish.

7.9. Mehnatni tashkil etishning qulay shart-sharoitlariga ega bo'lish;

7.10. Ta'lim muassasasi rahbariyatidan maslahatlar olish.

7.11. Xavf-xatarga moyil talabalar bilan ishlashga yagona yondashuvlarga doir uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish.

7.12. Pedagoglar, ota-onalar va talabalarning yig'ilishlarida ishtirok etadi.

7.13. Ilmiy izlanishni yo'lga qo'yish maqsadida oliy o'quv yurtlarida guruhiy va individual psixologik tajribalar o'tkazadi.

7.14. Psixologik ixtisos, asosiy ma'lumotlardan tashqari o'quv va fakultativ tarzda 0,5 pedagogik stavkada dars o'tish imkoniyatiga ega.

7.15. Kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli ado etish uchun yuqori tashkilotlardan, zarur shart-sharoitlar yaratishini talab qiladi.

7.16. Ota-onalarga va pedagoglarga zaruriyat tug'ilganda oilaviy turmush psixologiyasiga oid konsultativ xizmat usullarini tavsiya qiladi.

7.17. Oliy ta'lim psixologi muassasa tomonidan qulay shart-sharoitlari yaratib berilishini talab qiladi (individual maslahat xonasi va alohida trening xonasi, zarur jihozlar va inventarlar).

7.18. Byudjet muassasa va tashkilotlari xodimlarining lavozim tarif stavkalari miqdorlari bo'yicha 15 razryadga tenglashtirilgan.

7.19. Oliy ta'lim psixologlari oylik maoshi ish faoliyatini samaradorligini hisobga olib psixolog faoliyati baholash mezonlari asosida ularga qo'shimcha ustama haq belgilanadi.

VIII. OLIY TA'LIM PSIXOLOGIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI

8.1. Oliy toifadagi psixolog: ixtisosligi bo'yicha magistr, psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 1 yil ish staji bo'lishi lozim;

8.2. 1-toifadagi psixolog: ixtisosligi bo'yicha magistr, psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, 2-toifadagi psixolog sifatida kamida 1 yil (ixtisosligi bo'yicha magistr ish stajiga talab qo'yilmaydi) ish staji bo'lishi lozim;

8.3. 2-toifadagi psixolog: psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 2 yil ish staji bo'lishi lozim;

8.4. Oliy toifadagi psixolog: o'z ustida ishlashi va tajriba almashishi uchun har 3 yilda malaka oshirib borishi zarur.

8.5. Ta'lim muassasasi psixologi bilishi zarur:

- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi to'g'risidagi qonunlarni, davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta'lim va yoshlar to'g'risida Hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni, mustaqil O'zbekiston ramzlarning mazmun va mohiyatini;

— o'spirin, yosh va maxsus psixologiyasini, yosh fiziologiyasini, pedagogikani, o'spirin va yoshlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini, ularni xususiyatlarini, qiziqishlarini;

- Respublika va xorijiy davlatlaridagi psixologiya fanining yangiliklarini;

- hozirgi zamon ilmiy-amaliy asoslangan tashxisni, psixologik gigiyena asoslarini, kasb-hunarga yo'naltirish asoslarini, mehnat psixologiyasini, psixologik

maslahat va psixoprofilaktika asoslarini, yosh anatomiyasi, psixologiyasi va talabalarning fiziologiyasini, rivojlantiruvchi psixokorreksion, psixoprofilaktik ishlar metodlarini bilishi talab etiladi.

IX .OLIV TA'LIM MUASSASASI PSIXOLOGI XONASIGA QO'YILADIGAN TALABALAR VA JIHOZLARNING TAVSIFI

Jihozlarning rangi, tuzilishi, dizayni, qulayligi shaxs psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatishini inobatga olib, institutda psixologik xizmat xonasini ta'mirlashda va jihozlarni tanlashda ularning rangiga, joylashtirish uchun qulayligiga, birining ikkinchisi bilan uyg'unlashib ketishiga ahamiyat berilishi lozim.

Och yashil rangning shaxsni tinchlantiruvchi xususiyati inobatga olinib, psixologik xizmat xonasi devorlarining rangi och yashil bo'lishi tavsiya etiladi. Polning jiggar rangda bo'lishi esa shaxsda o'ziga ishonch va qat'iyatlilik hislarini uyg'otadi. Xonaning shifti oq rangda bo'lishi, shaxsda yengil kayfiyat hissini uyg'otib, diqqatini jamlashga yordam beradi.

Psixologik xizmat xonasida talabalar uchun 15 ta individual stol, 15 ta yumshoq stul va psixolog uchun 1 ta stol, 1 ta stul bo'lishi lozim. Xonada o'tkaziladigan mashg'ulotlarning shartlariga ko'ra stol va stullar turlicha joylashtiriladi. Individual stollarni tanlash va turli shakllarda joylashtirish, psixolog uchun talabaga individual yondashish imkoniyatini beradi va ular orasidagi oraliq masofa buzilmaydi. Oraliq masofaning buzilmasligi esa, har bir shaxsning ruhiyatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatib, ularning erkin va mustaqil fikrlashi hamda o'zida ishonch tuyg'ularini shakllantirishda yordam beradi.

Imkoniyat darajasida psixologik xizmat xonasiga jihozlarni kamroq burchaklilarini, ya'ni burchaklari aylana shakldagi jihozlarni tanlash va to'g'ri joylashtirish tavsiya etiladi. Xona jihozlaridagi qirra va to'g'ri burchaklar aqliy mehnat jarayonida fikrlar izchilligi, mantiqiy bog'liqlik va shaxsning ong osti faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xonadagi jihozlarning rangi devor rangi bilan uyg'unlashishi makon kengligi va psixologik shinamlikni vujudga keltiradi. Shuning uchun jihozlarning rangini tanlashga alohida e'tibor bilan qarash kerak.

Psixologik xizmat xonasidagi shkaf xonaning chap tomoniga joylashtirilib, uning bir tomonida me'yoriy hujjatlar, diagnostika natijalari, ish hujjatlari, ikkinchi tomonida ko'rgazmali qurollar, didaktik materiallar, psixodiagnostik test va uslubiy qo'llanmalar, jurnal va boshqa psixologik adabiyotlar joylashtiriladi.

Psixologik xizmat xonasida internet tizimiga ulangan so'nggi rusumdagi personal kompyuter va printer bo'lishi psixologga internet tarmog'iga chiqish, multimediyadan unumli foydalanish, professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida turli psixologik hamda intellektual testlarni o'tkazish, barcha psixodiagnostik ma'lumotlar banklarini to'plash imkoniyatini beradi.

Institut psixologi OTMda psixologik ma'rifat va tashviqot, psixologik profilaktika, korreksiya va maslahat ishlarini olib borish bilan birga, OTMda

o'tkaziladigan tadbirlarga psixologik xulosalarini berib boradi. Bunday hajmdagi ishlarni olib borish uchun albatta, kompyuter bo'lishi lozim.

Psixologik xizmat xonasining derazalarida oq parda yoki zamonaviy jalyuzilar bo'lishi shaxsda jo'shqinlik hissini uyg'otadi, mehnat faoliyatining samaradorligini ortishiga olib keladi.

Xonaning o'ng tomonida individual suhbatlarga mo'ljallangan psixologik burchak tashkil etilib, ikkita kreslo, jurnal stoli, stol lampasi, tuvaklarda xonaki gullar joylashtiriladi. Kreslo suhbat vaqtida bemalol o'tirishga imkoniyat yaratadi, xonadagi tabiiy gullar shaxsning kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda xona havosini yangilaydi. Psixologik xizmat olib borishda akvariumning bo'lishi shaxsga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, undagi diqqat turg'unligini oshiradi.

Xona poygagidagi devorning 6 kv.m. ga tabiat manzarasi aks ettirilgan gulqog'oz yopishtiriladi. Gulqog'ozni tanlashda albatta tabiat manzarasi bo'lishi va unda tabiatning eng chiroyli manzaralaridan tog', sharshara, yaylovlar, gulzorlar, daryo va dengizlarning bo'lishiga e'tibor qaratish zarur. Eng ahamiyatli jihatlardan biri esa gulqog'ozdagi ranglarning xona rangiga uyg'un, ya'ni, tabiat manzaralarida moviy, och yashil ranglar ko'proq bo'lib, ochiq havo manzarasi bo'lishi kerak. Bunday ranglarni tanlash xonada psixologik muhitni yaratishga, shaxs tasavvurini rivojlantirishga imkoniyat beradi va psixotreninglarni o'tkazishda ko'rgazmali material sifatida ham xizmat qiladi.

Tabiat manzaralari rasmini tanlashda qo'rqinch, xavotir hislarini paydo qiluvchi to'q rangli qalin o'rmonlarni, cho'l va sahrolarni, qiyalik va tog'utoshlarni tanlamaslik kerak. Bunday tabiat manzaralari shaxsda qo'rqish, tushkunlik, ta'sirchanlik hislarini paydo qilib, xonadagi psixologik muhitni buzadi va individual suhbat, psixotrening hamda korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xonada harakatlanuvchi ko'chma doska bo'lishi, trening tartibiga ko'ra mashg'ulotlarni olib borishda, joyni xohlagan tartibda o'zgartirish imkoniyatini yaratadi. Doskaning oq rangda bo'lishi turli rangdagi markerlardan foydalanish uchun qulaylik yaratib, trening jarayonida o'quvchilarning e'tiborini tortishga, mashg'ulotlarni rang-barang va qiziqarli o'tishiga yordam beradi.

Pol va gilam-palosning jigar rangda bo'lishi shaxsda ishonch va qat'iyatlilik hislarini uyg'otadi. Xonada gilam-palosning bo'lishi shinamlilikni ta'minlash bilan birga korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar va treninglarni o'tkazishda o'qituvchi va o'quvchilarning erkin harakatlanishlari uchun xizmat qiladi.

X. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

9.1. Oliy ta'lim muassasasi psixologi faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash qonun hujjatlarida taqiqlanmagan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

9.2. Oliy ta'lim muassasasi psixologning faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq holda amalga oshirilishi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan nazorat qilinadi.



Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022 yil noyabrdagi 373-sonli buyrug'iga 4-ilova

Oliy ta'lim muassasalari psixologi hujjatlari N O M Y E N K L A T U R A S I

1	NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR
	Mundarija 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari. 2. Psixolog nizomi, Hisobot shakli. Yillik ish rejasi. Baholash mezonlari.
2	BUYRUQLAR, KENGASH QARORLARI VA KO'RSATMALAR
	Mundarija 1. Yuqori tashkilotlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan taqdim etilgan xat-xujjatlar jamlanmasi. 2. OTMda psixolog tomonidan o'rganilgan murojaatlar
3	ISH REJALAR VA ULARNING BAJARILISHI.
	Mundarija 1. Talabalar va pedagog xodimlar o'rtasida o'tkazilgan metodikalar va treninglar ma'lumotnomalari. 2. Talabalar bilan olib borilgan suhbatlarni ro'yxatga olish daftari.
4	TALABALARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PASPORTLARI
	Mundarija 1. Talabalar bilan olib borilgan individual ishlar
5	PSIXOLOG MASLAHATIGA EHTIYOJI MAVJUD TALABALAR (HAMDA OTA-ONALARI BILAN ISHLASH)
	Mundarija 1. Ota-onalar, pedagog va ishchi xodimlar bilan ish yuritishga doir metodikalar va qo'llanmalar



Uzбекистон Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi
2022 yil noyabrda 373-sonli buyrug'iga 5-ilova

Oliy ta'lim muassasalari psixologlari faoliyatini baholashning namunaviy MEZONLARI

Baholash mezonlari	Qisqacha mazmuni	Ball
Talaba va o'quvchilarga psixologik tashxis qo'yish borasidagi faoliyati	a) ta'lim jarayoni sub'yektlarining shaxsiy (individual) psixologik xususiyatlarini o'rganish; b) talabalarning ruhiy holatini o'rganish; c) talabalarning ijtimoiy yetuklik va kasbiy ahamiyatga molik sifatlarining rivojlanishini kuzatish; d) talabalarning kasbiy ta'limga psixologik-pedagogik tayyorgarligini aniqlash; e) talabalarning intellektual va shaxs sifatida rivojlanishdagi nuqsonlarining psixologik sabablarini aniqlash.	15
Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy roli va guruh ichida tutgan o'rnini aniqlash. Psixologik profilaktika ishlarini olib borishdagi faoliyati	a) psixologning guruh rahbari, tibbiy xodim va mutasaddi mutaxassislari bilan hamkorlikda o'quvchining individualligini saqlagan holda shaxsiy rivojlanishini ta'minlash; b) talaba xulqidagi devyatsiya (salbiy og'ishlar) holatlarini oldini olish; c) stress, nizo, salbiy emotsional kechinmalar holatlari yuzaga kelishining oldini olish.	10
Psixologik korreksiya ishlarini tashkil etishdagi faoliyati	a) ta'lim olish va kasb-hunarni o'zlashtirishda qiynalayotgan talaba va o'quvchilar, shaxsning motivatsion doirasi bilan bog'liq muammolarini yechishda individual va guruh korreksiya ishlarini olib borish; b) yetim va ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy-psixologik rehabilitatsiyasini ta'minlash; c) asotsial (tarbiyasida salbiy og'ishlar mavjud) xulqqa ega bo'lgan talabalar bilan korreksion ishlarni amalga oshirish.	10

	Talaba va o'quvchilarga psixologik maslahat berish borasidagi faoliyati	<p>a) talabalarning individual rivojlanishidagi muammolarni hal etish bo'yicha pedagog, talaba va ota-onalarga maslahatlar berish;</p> <p>b) talabalarga ta'lim olishlari, rivojlanish masalalari, kelajagini aniqlash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotdagi muammolar yuzasidan maslahatlar berish;</p> <p>c) talabalarga o'zlashtirilayotgan kasbini samarali egallashi yuzasidan maslahatlar berish.</p>	10
	Talaba va o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy-psixologik, ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishdagi faoliyati	<p>a) pedagoglar, talabalar va ota-onalarning ijtimoiy-psixologik bilimlarini oshirish;</p> <p>b) pedagog va ota-onalarni talabalarning yosh davridagi shaxsiy rivojlanishining asosiy qonuniyatlari bilan tanishish;</p> <p>c) ta'lim jarayoni sub'yektlari o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi psixologik bilimlarini targ'ibot qilish.</p>	10
	Tashkiliy-metodik faoliyati	<p>a) talabalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, psixodiagnostikani o'tkazish uchun material tayyorlash va individual rivojlantiruvchi hamda psixokorreksion dasturlar ishlab chiqish;</p> <p>b) psixodiagnostika, psixokorreksiya va boshqa faoliyat turlari uchun yangi metodikalar ishlab chiqishda, ularning samaradorligini baholashda ishtirok etish;</p> <p>c) ijtimoiy so'rovnomalar, psixologik-pedagogik tashxis ishlarini o'tkazish, ularning natijalarini qayta ishlash, tahlil qilish va rasmiylashtirish;</p> <p>d) ilmiy pedagogik kengash va ishchi yig'ilishlar uchun psixologik materiallar tayyorlash.</p>	10
	Ijtimoiy-kasbiy moslashuv	<p>a) talabalarning ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayoniga va ijtimoiy pedagogik muhitga samarali moslashuvini ta'minlash;</p> <p>b) talabalarning shaxsiy psixofiziologik xususiyatlari, layoqati, qiziqishi, qobiliyatlarini o'rganish asosida, kasbiy muhitga moslashuvini ta'minlovchi tadbirlar majmuasini ishlab chiqish va tatbiq etish.</p>	10

	Jamoat ishlaridagi faolligi	a) ta'lim muassasalarida talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, umumxalq bayramlarini yuqori saviyada tashkil etishdagi faolligi; b) Ta'lim muassasasida tashkil etiladigan boshqa tadbirlardagi faolligi.	10
	O'z ustida ishlashi va tajriba almashishi	a) Har 3 yilda malaka oshirish kursida ishtirok etganligi	15
Jami			100

Izoh: Ushbu baholash mezonlari psixologlarning faoliyatiga baho berish, ijobiy natijaga erishilganda ularga turli rag'batlantirishlarni qo'llash, mukofotlarga tavsiya qilish, salbiy natija ko'rsatilganda tegishli intizomiy chora ko'rish, qayta malaka oshirishga yuborish kabi choralarni qo'llashga asos bo'lib xizmat qiladi.